

# NYC School Bus (maktab avtobusi) ilovasi haqida bilishingiz lozim bo'lgan barchasi



Biz avtobusda maktabga va maktabdan tashishdagi har qanday mavhumlikni olib tashlayapmiz. Farzandingizning maktabga va maktabdan avtobusdagi safarini oson, ishonchli va real vaqtda ishlaydigan avtobus trekeri yordamida kuzating.

**Boshlashga tayyormisiz?** App Store yoki Google Play Store onlayn do'koniga kiring va ilovani yuklab olish uchun **NYC School Bus App** deb qidiring yoki parvarishlovchi veb-ilovasini ko'rish uchun [doe.app.ridewithvia.com](https://doe.app.ridewithvia.com) saytiga tashrif buyuring.

## Barchasini tezda boshlash uchun quyidagi harakatlarni amalga oshiring.

1. NYC Schools hisobingiz (NYCSA) ma'lumotidan foydalanib tizimga kiring. Agar hali hisob ma'lumotlariga ega bo'lmasangiz, ro'yxatdan o'tish uchun [mystudent.nyc](https://mystudent.nyc) saytiga kiring yoki qo'llab-quvvatlash uchun o'quvchisingizning maktabiga murojaat qiling.



# NYC School Bus (maktab avtobusi) ilovasi haqida bilishingiz lozim bo'lgan barchasi

**NYC**  
Department of  
Education




**2.** Asosiy ekranda siz NYCSA hisobingizdagi har bir o'quvchining real vaqtdagi joylashuvini ko'rishingiz mumkin.

Biz ekranning yuqori qismida o'quvchingizning marshrut raqami va haydovchining ismini ko'rsatamiz. **Agar avtobusni xaritada ko'rmayotgan bo'lsangiz, o'quvchingizning avtobus kompaniyasiga marshrut raqamini aytib murojaat qiling va haydovchi marshrutni kiritmaganini ayting.**



## Savollar bormi?

**Yordam** bandiga, keyin esa **FAQ** qismiga bosish orqali savol-javoblar ro'yxatini toping. Ilova bo'yicha qo'shimcha yordam kerak bo'lsa, o'quvchingizning maktabi bilan bog'laning.



## Yordam kerakmi?

O'quvchingizning avtobus kompaniyasi yoki maktabi bilan bog'lanish uchun ekraning quyi qismidagi **Yordam** bandiga bosib, uning ortidan **Yordam xizmati bilan bog'lanish** qismiga kiring. Bu ma'lumotlar NYCSA hisobingizdagi har bir o'quvchingiz uchun taqdim etiladi.